

## O‘ZBEKISTONDA MERITOKRATIYA TIZIMINI JORIY ETISHNING IJTIMOIIY-

### SIYOSIY SHART SHAROITLARI

Mirzavaliyev Javlonbek Avazbekovich

O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi”

kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: javlonbek\_diplomat89@mail.ru

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan meritokratiya tushunchasi va uning kelib chiqish omillari va uning ahamiyati, O‘zbekistonda meritokratik tamoyillarni joriy qilishning ijtimoiy-siyosiy asoslari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Meritokratiya, demokratik tamoyillar, iqtidorli kadrlar, kadrlar siyosati, individual iste’dod.

Социально-политические предпосылки введения системы меритократии в Узбекистане.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается актуальное сегодня понятие меритократии, Обсуждаются социальные и политические основы введения меритократических принципов в Узбекистане.

**Ключевые слова:** меритократия, демократические принципы, талантливый персонал, кадровая политика, индивидуальный талант.

## SOCIAL AND POLITICAL PREREQUISITES FOR THE INTRODUCTION OF THE MERITOCRACY SYSTEM IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This article examines the current concept of meritocracy, the factors of its emergence and significance, The social and political foundations of the introduction of meritocratic principles in Uzbekistan are discussed.

**Keywords:** meritocracy, democratic principles, talented personnel, personnel policy, individual talent.

Har qanday davlatda mamlakat rivojining asosini kadrlar salohiyati va sifatli ta’lim tashkil etadi. Ushbu nuqtayi-nazardan qaralganda, O‘zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki davridan boshlab sifatli kadrlarga zarurat paydo bo‘ldi va ayni damda bu boradagi ehtiyoj har qachongidan ham ko‘ra ortdi deyishimiz mumkin. Endigina mustaqillikka erishgan, yosh,

iqtisodiy nochor, xalqaro maydonda siyosiy jihatdan hali kuchsiz, uzoq vaqt totalitar rejimda yurgan, agrar bir davlat uchun meritokratik tizimga o'tish nihoyatda zarur, ammo juda qiyin, uzoq vaqt, mashaqqatli mehnat va mablag' talab qiladigan muammoli bir ish edi. Tadqiqot tahlili natijasida bu boradagi amaliy faoliyatni ikki davrga ajratishni lozim deb bildik. Birinchi davr sifatida Islom Abdug'aniyevich Karimovning prezidentlik faoliyati davrini ya'ni 1991-2016 yillar oralig'ini, ikkinchi davr sifatida esa 2016-yildan keyingi Yangi O'zbekiston davrini ya'ni Shavkat Miromonovichning mamlakat prezidentligiga kelganidan keyingi davrni ko'rsatishimiz mumkin.

1991-2016 yillar oralig'idagi davr O'zbekistonda meritokratiya tizimining joriy etilishi borasidagi dastlabki davr bo'lib, ushbu davrni asosan meritokratiyaning voq'e bo'lishi uchun ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish yo'lidagi maxsus tayyorgarlik davri bo'ldi deb aytsak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz. (chunki, ushbu tizimni amaliyotga joriy etish uchun davlatning oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy muammolar mavjud ediki, ushbu muammolarni bartaraf etmay turib meritokratiyani joriy etishning zarur shart-sharoitlarini yaratib bo'lmas edi.)

Avvalo, bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlarning asosiy o'zagi bo'lmish sifatli kadrlar tayyorlash maqsadida sifatli ta'limga e'tibor qilindi. Mamlakatda ta'limning huquqiy asosi yaratildi. Ma'naviy va madaniy taraqqiyotning eng muhim poydevori etib ta'lim tizimi belgilandi. Bularning sababi shunda ediki, zamon talablariga to'la javob beruvchi, ilg'or fan-texnika va texnologiya yutuqlarini egallagan kadrlarni yetishtirmay turib jamiyatni taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Mamlakatda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"<sup>1</sup>gi (Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son qabul qilingan) qonunning qabul qilinishi hamda mazkur qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog hodimlarning burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berilishi bu ijobiy hususiyat edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida 10 mingdan ortiq xalq ta'limi xodimiga davlat uylari, 22 mingdan ortiq xodimga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylarining bepul xususiylashtirilib berilishi sifatli kadrlar tayyorlash maqsadida ta'lim sohasi rivojiga berilgan e'tiborning mahsulidir. Shuningdek, 50 mingdan ortiq pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi. Qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to'lovlardan ozod etilgan bo'lsalar, shaharliklar uning 50 foizi miqdorida to'lab bordilar. Keyinchalik, kommunal xizmat bo'yicha bu imtiyozlar oylik maoshlariga qo'shib beriladigan kompensatsiya bilan almashtirildi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-56418>. <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>2</sup> Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-131.

Meritokratiyaning O'zbekistonda shakllanishi borasida ijtimoiy-siyosiy sharoit bevosita davlatning o'zi boshchiligida ta'lim to'g'risidagi islohotlar bilan qorishib shakllandi. Albatta, bu borada so'z yuritilganda aholining iqtisodiy farovonligi ham jarayonga o'z ta'sirini o'tkazmay qolgani yo'q.

Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish, rivojlantirish va yuksaltirishda shaxsning ongi, tafakkuri, qobiliyat va intilishlari, xususan intellektual qobiliyatlari, ilm-fan sohasidagi faolligini oshirish kun sayin muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar sharoitida kishilarimiz shaxsiy faolligining ortishi, shuningdek, milliy o'zlikni anglash, erkin tafakkur, ilmiy dunyoqarashi, ilm-fan yutuqlarini taraqqiyot jarayoniga tatbiq etish sohasidagi ishtirokining ortib va kengayib borishi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, ularning jamiyatimizda ilmiy qadriyatlar, intellektual boyliklarni ko'paytirishdagi shaxsiy faolligi ortib bormoqda.

Odamlarning sifatli ta'limga va serdaromad ishlarga intilishi 2000-yilarga kelib aholi turmushida iqtisodiy yuksalishlarning kuzatilishi mamlakatda meritokratiyaning vujudga kelishi borasida qulay ijtimoiy shart-sharoit yaratdi deb aytish mumkin. O'zbekistonning faol tashqi dunyoga intilishi, iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan ulkan islohotlar, harbiy kuchlarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyat hamda aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi amaliy harakat meritokratiyani mamlakatda vujudga kelishi borasida siyosiy shart-sharoitlarni taqazo etardi va ushbu jarayon o'z amaliy isbotini ko'rsatdi.

Meritokratiyani mamlakatda vujudga kelishi borasidagi asosiy davr bu Ikkinchi davr sifatida Yangi O'zbekiston davrini ya'ni Shavkat Miromonovichning mamlakat boshqaruviga kelganidan keyingi davrni ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu davr O'zbekistonda kadrlarni lavozimga qo'yishda meritokratik tizimning joriy etilishi davri bo'lib, endi kadrlarni tayyorlash va lavozimga qo'yish masalalarida tizimlashtirishga bo'lgan harakatni kuzatishimiz mumkin. Buning uchun esa mamlakatda qulay ijtimoiy-siyosiy muhit shakllanishiga erishildi deb ayta olamiz. Ushbu jarayon quyidagicha ko'rinish kasb etdi.

**Birinchidan**, davlatning ta'lim sohasidagi siyosatini qayta ko'rib chiqishi oliy ta'limga kirish ko'rsatkichini oshirdi va aholi orasida oliy ma'lumotga ega bo'lgan kadrlar soni ko'paydi. Bu esa, shubhasiz, lavozimlar uchun nomzodlar soni va sifatiga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazdi; **ikkinchidan**, davlatning xalqaro maydonda ochiq siyosat yuritishi va qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatishi O'zbekiston yoshlarining xorijiy davlatlarda ta'lim olish salmog'ini keskin oshirdi. zamonaviy fan va texnologiyalarni egallagan o'zbek yoshlari mamlakatga qaytib kelgach rahbar lavozimlarni egallashda yetakchilik qila boshladi hamda chet davlatlarda o'zlari o'rgangan bilim va ko'nikmalarni O'zbekistonda qo'llay boshlashdi, xususan meritokratik tamoyillarni ham;

**uchinchidan**, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining ortishi, kapitalistik munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sur'atining yuksalishi va xususiylashtirishning kengayishi, aholi orasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining jadaln sur'atda rivojlanishi mamlakat va uning aholisining iqtisodiy ahvoli yaxshilanishiga, pirovardida iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishga olib keldi. ushbu jarayonlar meritokratik tizimning mamlakatda joriy etilishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi;

**to'rtinchidan**, davlatning o'z siyosatini inson qadridan kelib chiqib, uni oliy qadriyat sifatida belgilab, gumanitar maqsadda va shaklda olib borishi kadrlarning lavozimga qo'yilishi borasida ham bir qator o'zgarishlar qilinishiga zamin yaratdi;

**beshinchidan**, mamlakat siyosatida korrupsiyaga qarshi kurashning kuchayishi, korrupsiya ko'lamini kamaytirishga bo'lgan harakat ham meritokratik tizimning joriy etilishi borasida ulkan turtki bo'ldi. Ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlar natijasi o'laroq davlat xizmati lavozimlarini egallashda ochiq va shaffof tizim yaratildi;

**oltinchidan**, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlar qatlamining faollashuvi, ularga nisbatan davlatning qo'llab-quvvatlashi davlat xizmatchilari lavozimlarida yoshlar safining kengayishiga olib keldi. Bilimli va kreativ fikrlaydigan yoshlarning rahbar lavozimlarni egallashi O'zbekistonda meritokratik tamoyillarning tizim holida shakllanishiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, «XXI asr – intellektual asr» deb atalmoqda va bu yangi soha bu yangi bilimlar ishlab chiqish uchun texnologiyalar, uslublar, texnik vositalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan axborot sanoati yuzaga kelmoqda. Bu esa axborot texnologiyalarini ham sifat ko'rsatkichlarini zamon bilan hamnafas qilishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz birorta sohaning rivojlanishi mumkin emas”<sup>3</sup> deb ta'kidlagani bejiz emas. “Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”<sup>4</sup>gi Prezident farmoni loyihasida talim qamrovi 2022 yilda 38% ga yetkazish rejalashtirigan bo'lsa 2026-yilgacha 50 foizgacha oshirish mo'ljallangans.

Xususan, 2017-yil umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya'ni 12-yillik majburiy ta'limdan 11-yillik ta'limga qaytildi. 11 yillik ta'limga o'tish bo'yicha so'rovnoma natijasi ota-onalarning 70 foizidan ortiq qismi 11 yillik ta'lim

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б.87.

<sup>4</sup> <https://regulation.gov.uz/uz/d/55274>

<sup>5</sup> <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-2026-jilga-borib-olij-talim-qamrovi-50-foizga-etkaziladi>

qayta tashkil etilishi tarafdori ekanini ko'rsatdi. 2017-yilning o'zida 10-sinf o'quvchilari uchun 9 mln nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumta'lim maktabida 11-yillik ta'limga o'tilgan holda o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Maktabgacha ta'lim, 6–7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois, bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"<sup>6</sup>gi qarorni imzoladi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiritildi. 2017-yilga kelib O'zbekistonda 5 186 ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritayotgan edi. Ayni damda bog'chaga borayotgan bolalar umumiy bolalar sonining 30% ni tashkil qilardi. Ushbu sohaga berilgan e'tibor natijasida maktabgacha ta'lim muassasalari soni ortib bordi. Yillar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni quyidagicha ortib bordi. 2017-yilda – 5 186 ta; 2018-yilda – 6 381 ta; 2019-yilda – 6 968 ta; 2020-yilda – 7 753 tani tashkil etgan. 2022-yil 21-sentabr sanasida bo'lib o'tgan Senat Kengashining yig'ilishida "2017-yilda respublika bo'yicha jami 5 ming 211 ta maktabgacha ta'lim tashkilotiga 708 ming 247 nafar bola (3-7 yoshdagi bolalarning 27,7 foizi) qamrab olingan bo'lsa, bugungi kunga kelib, 28 ming 12 ta maktabgacha ta'lim tashkilotiga 1 million 957 ming 358 nafar bola (69,4 foiz) qamrab olingan" ligini keltirib o'tildi.

Sifatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj nafaqat maktab ta'limi va maktabgacha ta'limni rivojlantirishni talab qilardi. Balki maktabdan keying ta'limni ham rivojlantirish zarurati tug'ilgan edi. Xususan, 2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin, davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar inobatga olinib, sirtqi ta'lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lim takomillashtirildi. 2017-yil 16-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"<sup>8</sup>gi qarori qabul qilindi. Unga

<sup>6</sup> 30.09.2018 yildagi PQ-3955-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

<sup>7</sup> <https://daryo.uz/2022/09/21/ozbekistondagi-bogchalar-soni-besh-yilda-salkam-23-mingtaga-kopaygani-malum-qilindi/>.

<sup>8</sup> <https://lex.uz/docs/-3413551>

<https://conferencea.org>

muvofoq, 2018/2019-o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tas'viriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlarida test sinovlari chiqarib tashlandi. 2017-yilda mamlakatimizda 80 dan ortiq oliy o'quv yurti, jumladan, 19 ta universitet, 37 ta institutlar, 6 ta akademiya, 1 ta konservatoriya, 1 ta raqs va xoreografiya oliy maktabi, 13 ta OTMLar filiallari, 6 ta xorijiy davlatlar OTMLarining filiallari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatgich 210 tani, OTM talabalari soni 1 029 522 nafarni, professor-o'qituvchilar soni 34 590 nafarni, yo'nalishlar va mutaxassisliklar 3 539 tani tashkil etmoqda va ilmiy salohiyat 38 foizga yetgan<sup>9</sup>.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o'rgangan holda 2017-yilning 22 aprelda "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"<sup>10</sup>gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

O'zbekistonda davlat boshqaruvida gendr tengligini ta'minlash qonuniy asosga egaligi belgilab qo'yildi. Bu esa meritokratiya tamoyillarini O'zbekistonda amaliyotga tadbiq qilishda ayollarning keng ishtiroki ta'minlanishiga zamin yaratdi. Boshqaruv sohasia ayollardan ham kuchli davlat arboblari chiqishi bu meritokratiya nazariyasi amaliyotda aks etishining xosilasidir.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 15 dekabrda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida amaldagi kadrlar tizimi faoliyatiga tanqidiy baho berib mazkur tizim qayta shakllantirilishini ma'lum qilgandi. "Bu borada hududiy boshqaruv organlari, eng avvalo, mamlakatimiz tuman va shaharlari hokimliklari uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun Oliy ta'lim muassasalari tizmi bilan birga, mamlakatimizdagi 6 ta akademiya, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi kabi tashkilotlarning ilmiy-amaliy salohiyati va imkoniyatlarini yanada faol safarbar eish darkor. Shu o'rinda aytish kerakki, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi o'ziga yuklatilgan vazifani mutlaqo uddalamayapti, desak, to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun ushbu akademiyaning ham, uning ish

<sup>9</sup> <https://stat.edu.uz/> (15.04.2023 yil holatiga ko'ra)

<sup>10</sup> <https://lex.uz/docs/-3213410>

<https://conferencea.org>

uslubini ham tubdan o'zgartirish va rahbar kadrlarini qayta ko'rib chiqish lozim". deya tanqidiy tahlil qilingandi

So'nggi yillarda O'zbekistonda meritokratiya nazariyasini anchagina rivojlangan deyish mumkin. Ayniqsa, ushbu nazariyani huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydigan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Qaror va Famonlari qabul qilingan. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 8-avgustida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini imzolanganligi meritokratiya tizimini joriy qilishdagi yana bir qadam bo'ldi.

Bugungi kunda meritokratiya nazariyasini O'zbekistonda qo'llanishi Davlat boshqaruvi akademiyasi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Unda o'qitish tizimi islohotlarning hozirgi talabidan kelib chiqib tubdan takomillashtirilmoqda. O'quv rejasi va dasturlari boshqaruv kadrlarni milliy qadriyatlarni o'zlashtirganlik, tizimli fikrlash qobiliyati, boshqaruv professionalligi, liderlik, moslashuvchanlik kabi mezonlar asosida tayyorlash e'tiborga olingan holda tuzilgan. O'quv jarayoniga 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi", boshqaruvning ma'naviy asosi, tizimli tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, hududiy boshqaruv va hududni rivojlantirishni strategik rejalashtirish, innovatsion menejment, rahbar ahloqi va boshqaruv madaniyati, diplomatik protokol va etiket, notiqlik mahorati kabi 16 ta yangi fan qo'shilgan. Shu bilan birga, amaliyot mashg'ulotlari 70% gacha ko'paytirilgan.

Ushbu islohotlar O'zbekistonda meritokratik tizimni joriy etishni hayot talabi qilib qo'ydi. Xususan, kadrlarni lavozimiga qo'yishning avval mavjud bo'lgan tizimi o'zgarib, ushbu borada ham adolatni tiklash va korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida davlat fuqarolik xizmatlariga lavozimga ishga olishning mutlaqo yangi tizimi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilib, davlat fuqarolik xizmati vacant lavozimlarining yagona ochiq portali – <https://vacancy.argos.uz/> sayti ishga tushirildi. Hozirda ushbu portalda ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar soni 14 408 ta, saytga kelib tushgan rezmyular soni 298 543 ta, testda qatnashganlar 423 488 ta, tanlovda ishtirok etganlar 1 414 585 ta, suhbatda qatnashganlar soni 228 420 ta, ishga qabul qilinganlar son 46 999 tani tashkil etadi<sup>11</sup>. Sayt orqali minglab yurtdoshlarimiz o'z salohiyatiga munosib vakant lavozimlarga ishga joylashmoqdalar.

Albatta, har qanday jamiyatda ham kadrlar asosiy lokomotiv vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi-nazardan yondoshadigan bo'lsak, meritokratik tamoillarni O'zbekistonda to'la joriy

<sup>11</sup> <https://vacancy.argos.uz/>

<https://conferencea.org>

etish har qaysi zamondagidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ushbu borada ko‘plab olimlar o‘z nazariyalarini ilgari surmoqdalar<sup>12</sup>.

Bugungi kunda O‘zbekistonda kadrlarni lavozimga olib kelishda tanlash, tayyorlash va tayinlashning samarali tizimini yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda. Kadrlarni tanlash borasida “yana bir masala yuzaga chiqadi. Bu - rahbarlikka tanlash, tayyorlash va tayinlash bo‘yicha samarali mexanizm ishlab chiqish. Rahbarlik — mas’uliyati, javobgarligi katta bo‘lgan va davlat boshqaruvining bir bo‘lagi sifatida insoniyat, jamiyat ertasini belgilab beruvchi lavozim. Shunday ekan, bizning oldimizdagi eng dolzarb vazifalardan biri, bu — Yangi O‘zbekiston jamiyatidagi o‘zgarishlarni, islohotlarni teran tahlil qila biladigan kadrlarni tayyorlash<sup>13</sup>, -”deya keltirib o‘tilgan. Rahbarlik haqida “xulosa sifatida aytish mumkinki, rahbarlik ham ne‘mat. Kimdir bugun uni liderlik xislatiga ega bo‘lgan inson, der. Ammo biz hali bu ne‘matning tub mohiyatini anglab yeta olganimiz yo‘q. Rahbarlik, aslida, tug‘ma qobiliyatlar bilan yuzaga chiqib turadigan insonlarda ko‘rinadi, ularni bolalik chog‘idan kuzatish mumkin. Agar bir bolada shunday qobiliyat bo‘lsa, unga befarq qarash kerak emas, tarbiyasiga katta e‘tibor qaratish lozim. Chunki har kim ham o‘z ortidan ko‘pchilikni ergashtira olish qobiliyatiga, ko‘pchilikning dardiga darmon bo‘lish xislatiga, jamoani to‘g‘ri boshqara olish kuchiga ega bo‘lmaydi. Bu xislatlarga hamohang ravishda insoniylik sifatleri, kuchli ma‘naviy yetuklik, e‘tiqod pokligi, aql va xulq yuksakligi birlashsagina chinakam rahbar yetishib chiqadi<sup>14</sup>”. E‘tibor berib qaralsa, yuqoridagi fikrlar orqali rahbar kadrlarga aynan qanday kishilarni tanlab olish hamda uning fazilatlariga qo‘shimcha ravishda yana qanday fazilatlarini shakllantirish ya‘ni kadrlarni tayyorlash borasida so‘z yuritilgan. Shuningdek, vacancy.argos.uz sayti davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portal hisoblanib, bugungi kunda davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga kadrlar saralab olishning shaffof tizimi sifatida bo‘y ko‘rsatdi, ammo ushbu sayt faoliyatini yanada rivojlantirish, takomillashtirish va barcha uchun foydalanishni yanada qulay tizimini yaratish lozim.

<sup>12</sup> Пахрутдинов Ш. **Янги Ўзбекистонда демократик жамият ва раҳбар масъулияти.** “Янги Ўзбекистон” ижтимоий-сиёсий газетаси. № 36 (825), 2023 йил 22 февраль, - Б 3.

<sup>13</sup> **Yuqoridagi manbaa.**

<sup>14</sup> Пахрутдинов Ш. **Янги Ўзбекистонда демократик жамият ва раҳбар масъулияти.** “Янги Ўзбекистон” ижтимоий-сиёсий газетаси. № 36 (825), 2023 йил 22 февраль, - Б 3.